



SAYLOVOLDI TASHVIQOTINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA MILLIY VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA

Esengeldieva Asem Yuriy qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Ilmiy rahbar: Seitnazarova Guljahan Suxanatdinovna,

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11519666>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2024 yil

Ma'qullandi: 29-may 2024 yil

Nashr qilindi: 7-iyun 2024 yil

KEY WORDS

Siyosiy PR, siyosiy partiya, saylov, saylovoldi targ'ibot, siyosiy plyuralizm, elektorat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada jamoatchilik bilan aloqalar bo'limining saylovoldi tashviqotini amalga oshirish bo'yicha milliy va xalqaro ilg'or xorijiy tajriba haqida ma'lumotlar berilgan. O'zbekiston saylovoldi targ'ibotini olib borish borasidagi tadbirlarga ham atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Saylovoldi tashviqoti – elektoratni zarur axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgan eng muhim bosqich bo'lib, saylov institutlarining faoliyati, fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirish samaradorligini va umuman, xalq hokimiyatchiligini tavsiflovchi mamlakatning demokratik rivojlanish darajasini namoyon qiladi.

Siyosiy plyuralizm – taraqqiyot omili¹

Mamlakatimizda demokratik institutlar va siyosiy xilma-xillikni rivojlantirish sharoitida saylovoldi tashviqoti masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Zotan, saylovlarni faqat fuqarolarga ma'lumot olish huquqi va fikr bildirish erkinligi kafolatlangan taqdirdagina to'laqonli erkin va adolatli o'tgan, deb hisoblash mumkin bo'ladi.

Darhaqiqat, saylovoldi tashviqotining qanday o'tkazilishi – elektoratning fuqarolik pozitsiyasini aniqlashtirishga xizmat qilgan holda saylov natijalariga bevosita ta'sir o'tkazadi. Chunki tashviqot orqali saylovchilarning siyosiy va huquqiy ongi shakllanadi, ularning davlat boshqaruvida ovoz berish tartibidagi ishtiroki asosida siyosiy faolligi oshadi va pirovardida, tashviqot, saylovchilar tomonidan eng munosib xalq vakilini tanlashga ta'sir qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda saylovoldi tashviqotini amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib xususan, Avstraliyada saylovoldi tashviqotini amalga oshirishda nomzod va partiya sarflashi mumkin bo'lgan mablag'lar miqdori chegaralab qo'yilgan. Buyuk Britaniyada televideniya pullik siyosiy reklamalar taqiqlanadi.²

Ruminiya, Polshada saylovoldi tashviqoti saylovda ovoz berish kuni e'lon qilingan sanadan boshlansa, Litvada Adliya vazirligi tomonidan nomzodlar ro'yxati e'lon qilingan vaqtdan

¹Siyosiy partiyalar tarixi va rivojlanishi - ma'ruza matni;

²Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. - T.: Baktria press, 2021.

boshlanadi. Mazkur muddat Turkiyada saylovga qadar 15 kun, Slovakiyada 23 kunni tashkil etadi.

Ayrim mamlakatlar qonunchiligida tashviqotni olib borish taqiqlangan hududlar mavjud. Masalan, Bolgariyada jamoat transportlarida tashviqot olib borishga ruxsat berilmasa, Kanadada turar joylar devoriga saylov tashviqot materiallarini joylashtirish mumkin emas. Polsha va Slovakiyada esa davlat muassasalarining binolari, saylov uchastkalarida saylovoldi tashviqotlarini olib borishga yo'l qo'yilmaydi.

Xorijiy mamlakatlarda saylovoldi tashviqoti davri – saylov kampaniyalari uchun siyosiy raqobat maydoniga aylanib ushbu jarayonlarda ayniqsa axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish saylov natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ilg'or xorijiy mamlakatlarda tashviqot davrida onlayn-instrumentlardan foydalanish, jumladan, nomzodning alohida tashviqot platformasini ishga tushirilishi, Twitter, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda sahifalarining faol yuritilishi hamda maxsus mobil ilovalarning ishlab chiqilishi – saylovlarda g'oliblikka erishishga katta ta'sir o'tkazgan.³

Ma'lumki, saylov kuni va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin "jimjitlik kuni" hisoblanadi. Bunda jamoatchilik fikri so'rovnomalari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni e'lon qilish taqiqlanadi. Bundan tashqari, ko'plab xorijiy mamlakatlarda ovoz berishi kuniga yaqin saylov natijalari bo'yicha jamoatchilik fikri so'rovnomalari e'lon qilish mumkin emas. Germaniya va Bolgariyada bu muddat 14 kun, Albaniya va Vengriyada 8 kun, Fransiya, Chexiya va Slovakiyada – 7 kunni tashkil etadi.

Ilg'or xorijiy tajriba tahlili asosida e'tirof qilish mumkinki, o'zbekistonning zamonaviy saylov qonunchiligi va saylov tizimi umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga, erkin va adolatli saylovlar mezonlariga muvofiq keladi.

Saylovoldi tashviqoti – elektoral-huquqiy faollikni kuchaytiradi. Ma'lumki, elektoral-huquqiy faollik – huquqiy va ijtimoiy faollikning eng muhim shakli bo'lib, saylov huquqlarini samarali amalga oshirishdagi fuqarolarning intensiv faoliyatini namoyon qiladi. Saylov tadbirlarining xususiyati, jarayoni va natijasi aynan saylovchilar huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq hisoblanadi.

Saylov huquqiy madaniyati – saylov jarayoni faoliyati bilan bog'liq huquq normalari, qadriyatlar, huquqiy institutlar va metodlar uyg'unligini aks ettiradi. Fuqarolarning saylov huquqi madaniyati darajasining yuksakligi esa bevosita ularning saylovlardagi faol ishtiroki, siyosiy qarashlari va fuqarolik pozitsiyasini mustaqil bildira olishi va bu orqali mamlakatda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarga nisbatan o'z munosabatini ifoda etishi bilan belgilanadi.

Shu tufayli, qonunchilik takomillashuvi bilan bir qatorda mamlakatdagi barcha saylovchilar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularga saylovni o'tkazishga oid asosiy tamoyillar, saylov jarayoniga, uning oshkoraligi va ochiqligi, xalqaro saylov standartlari va ularning milliy qonunchiligimizga singdirilishiga oid masalalar yuzasidan tashviqot ishlarini amalga oshirish – bugungi davrning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Qayd etish joiz, aynan saylovoldi tashviqotlarida fuqarolarga saylov jarayonlariga oid zarur axborotlar taqdim etiladi. Nomzodlar dasturlari mazmun-mohiyati elektoratga eng maqbul kontentlarda yetkaziladi. Bu orqali esa saylovchilarning huquqiy madaniyati va huquqiy faolligini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

Binobarin, elektoral-huquqiy faollikni oshirish - saylovlarda nomzodlarga bo'lgan talablarni oshirishda, nomzod shaxslarning saylovchilarga taqdim etadigan g'oyalarini yanada chuqurroq mushohada etishida, eng muhimi, har tamonlama munosib shaxslarning saylanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlanishimiz o'rinli, ommaviy axborot vositalari erkin demokratik saylovlarni o'tkazishning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Saylov jarayonida barcha fuqarolarga

³Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyatlar. - T.: SHarq. 2020.

saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar, nomzodlarning saylovoldi dasturi, shuningdek, saylov jarayonining mohiyati haqida to'liq axborot olish uchun barcha shart-sharoitlari ta'minlanadi.

Saylovoldi tashviqoti o'tkazish maqsadida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalar bilan kelishilgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Shu sababli Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiyalardan kelib tushgan taklif va istaklarni inobatga olib, har bir nomzodga o'z saylovoldi dasturlarini aholiga yetkazish uchun O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" va "Yoshlar" tele- va radiokanallarida 638 daqiqadan, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 12 ta hududiy telekanallarida 206 daqiqa, "Toshkent" teleradiokanalida 286 daqiqadan bepul efir vaqti ajratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyatlar. - T.: SHarq. 2020.
2. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - T.: Yangi asr avlodi, 2022.
3. Koen Dj., Arato E. Grajdanskoe obshchestvo i politicheskaya teoriya. Per. s angl. - M.: 2021.
4. Муминов Ф. Паблик рилейшнз: история и теория. – Т.: Ижод дунёси. 2004.
5. Arziyev F. Pablik rileyshnz – axborot ortidagi manfaat. //Xalq so'zi, 2003, 4 noyabr.
6. [PRESS LANGUAGE IS A QUALITY OF LITERARY AND ORAL LANGUAGE SIZE.](#) G Seitnazarova - Конференции, 2020
7. [Relativity of the Genre, Theme, Idea and Image in Artistic Expression.](#) SG Suxanatdinovna.

INNOVATIVE
ACADEMY